

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 205 (1266), 2024-yil 10-oktabr, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

MAMLAKATIMIZ BOSH KENTI YIRIK
MEGAPOLISGA AYLANTIRILADIPrezident Shavkat Mirziyoyev 9-oktabr kuni Toshkent shahrining
bosh rejası loyihasi bilan tanishdi.

Bugungi kunda shahar hududi 43 ming 822 gektar, aholi soni 3 milliondan ziyod. Kelgusida bu miqyos yanada oshib borishi tayin. Shu bois, Toshkent shahrining 2045-yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan bosh rejası loyihalashtirildi.

Davlatimiz rahbari bu boradagi ilk ishlarni bilan 2022-yilda tanishgan edi. Unda berilgan ko‘rsatma va tavsiyalar asosida loyiha takomillashtirildi. “ToshkentboshplanLITI” korxonasi Singapur, Buyuk Britaniya, Turkiya, Germaniya, Xitoy va Niderlandiya kompaniyalari bilan hamkorlikda puxta ish olib borildi.

Loyihaga ko‘ra, Toshkent shahri hududi 3 ta zonaga ajratiladi. Konservatsiya zonasida madaniy meros binolari, tarixiy joylar, uylar va yashil hududlar o‘zgarishsiz qoladi. Rekonstruksiya zonasida master-rejalar asosida qo‘shimcha qurilishlar qilish mumkin bo‘ladi. Renovatsiya zonasida eskirgan uy-joy, binolar o‘rnida yangi qurilishlar va ta‘mirlash amalga oshiriladi.

Bugungi kunda ekologiya va transport muammolari dolzarb bo‘lib bormoqda. Xususan, oxirgi o‘n yilda Toshkentdagi havo harorati o‘rtacha 1 daraja ko‘tarilgan. Ba‘zi kunlarda atmosferadagi ifloslantiruvchi moddalar me‘yordan ortiq bo‘lmoqda. Avtomashinalar ham kun sayin ko‘payib, yo‘l harakati qiyinlashib bormoqda.

Shu bois, yangi bosh rejada bu masalalar inobatga olingan. Jumladan, Toshkent shahri va uning atrofidagi yashil hududlar 3 karra ko‘paytirilib, 25 ming gektarga yetkazilishi belgilanmoqda. Bu orqali aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yashil maydon hozirgi 3 kvadrat metrdan 6 kvadrat metrga oshadi.

Shaharsozlik talabiga ko‘ra, aholi o‘z yashash joyidan eng yaqin bog‘cha, maktab, shifoxona, savdo va xizmat ko‘rsatish obyektlarigacha ko‘pi bilan 15 daqiqada yetib bora olishi kerak. Shu bois, jamoat transporti tarmog‘i kengaytirilib, bog‘lamlar va bekatlar ko‘paytiriladi. Yangi yo‘llar qurilib, metrobus yo‘nalishlari tashkil etiladi.

So‘nggi yillardagi o‘shish natijasida Toshkentda elektr energiyasi, suv va oqova infratuzilmasi yuklama bilan ishlayapti. Bosh reja loyihasida bu quvvatlarni oshirish manbalari ham hisob-kitob qilingan.

Bosh reja tasdiqlangach, uning xaritalari Shaharsozlik kadastri geoaxborot tizimida hamda Toshkent shahar hokimligi veb-saytida ochiq ma‘lumot sifatida joylashtiriladi.

Mutasaddilar bosh rejaning shu kabi asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha axborot berdi.

Davlatimiz rahbari Toshkent shahrini kamida 7,5 million odam yashashi va ishlashi uchun qulay sharoitga ega yirik megapolisga aylantirish zarurligini ta‘kidladi. Toshkent viloyatining Qibray, Zangiota, Yuqori Chirchiq, O‘rta Chirchiq va Toshkent tumanlarini poytaxt bilan yaxlit aglomeratsiya asosida rivojlantirish bo‘yicha topshiriqlar berdi.

O‘zA

BOQIY VA KO‘HNA BUXORO ZAMONAVIY
AEROPORTGA EGA BO‘LADIPrezident Shavkat Mirziyoyev 9-oktabr kuni Buxoro xalqaro aeroporti
qurilishiga oid taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda aeroportlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilmoqda. Shu yilning o‘zida Shahrisabz, Qo‘qon va Zomin aeroportlari ishga tushirildi, Namangan va Andijonda esa modernizatsiya boshlandi.

Aeroportlar boshqaruviga xususiy sektor jalb qilinayotgani ham o‘z samarasini beryapti. Xususan, Samarqand xalqaro aeroporti xususiy boshqaruvga berilib, modernizatsiya qilingach, parvozlar va yo‘lovchilar soni 5 barabarga oshgan.

Shunday salohiyat Buxoroda ham bor. Lekin u yerdagi aeroport aholi va turistlar talabiga javob bermayapti. Mazkur aeroport soatiga 400 nafar yoki yiliga 1 million yo‘lovchiga xizmat ko‘rsata oladi, xolos. Bu — talabga nisbatan juda past.

Parvozlarni boshqarish va yo‘lovchilarga xizmat ko‘rsatish tizimlari, kutish-kuzatish zallari eskirgan qatnovlarni ko‘paytirish imkonini cheklayapti. Aksariyat sayyohlar Buxoroga borish uchun Toshkent, Samarqand yoki Urganch aeroportlariga qo‘nishga majbur bo‘lyapti. Masalan, 9 oyda Buxoroga tashrif buyurgan 1 milliondan ziyod xorijiy turistlarning 95 foizi poyezd yoki avtomobilda borgan.

Viloyatda mehmonxonalar tarmog‘i, ziyorat turizmi rivojlanib bormoqda. Kelgusi uch yilda Buxoroga turistlar oqimini 8 millionga yetkazish reja qilingan.

Shu bois, joriy yil 31-mayda Prezidentimizning viloyatga tashrifi chog‘ida Buxoro tumanida yangi

xalqaro aeroport qurilishi boshlangan edi. Davlat-xususiy sheriklik asosidagi ushbu loyiha doirasida jahon standartlariga mos aeroport tashkil etiladi. Soatiga 1 ming 200 nafar yo‘lovchiga xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi. Yo‘lovchi va havo kemalariga servis sifatini oshirish orqali yangi xalqaro aviakompaniyalar jalb qilinadi.

Taqdimotda loyihaning texnik-iqtisodiy jihatlari to‘g‘risida axborot berildi.

Davlatimiz rahbari yangi aeroportda o‘tkazuvchanlik qobiliyatini 2 barobar oshirib, soatiga 8 ta samolyot kelish-ketishiga imkoniyat yaratish zarurligini ta‘kidladi. Terminalning qulayliklari, ichki va tashqi qiyofasi bo‘yicha tavsiyalar berildi.

O‘zA

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

27-OKTABR — OLIY MAJLIS
QONUNCHILIK PALATASI
VA MAHALLIY
KENGASHLAR DEPUTATLARI
SAYLOVI KUNI

MENING TANLOVIM — OBOD VATANIM!

Mazkur maqola O‘zbekiston Ekologik
partiyasiga saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan
bepul nashr maydoni doirasida
e‘lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

O‘ZBEKISTON MDH DOIRASIDAGI
HAMKORLIKNI TUZILMAGA A‘ZO BARCHA
DAVLATLAR MANFAATLARINI
HISOBGA OLGAN HOLDA
RIVOJLANTIRISH TARAFDORIPrezident Shavkat Mirziyoyev 7-8-oktabr kunlari
Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlat rahbarlari kengashining
navbatdagi majlisida ishtirok etdi.

Biz va dunyo

Davlatimiz rahbari sammitdagi nutqida Rossiya-ning Hamdo‘stlikka raisligi yakunlarini yuqori baholash barobarida MDH davlatlarining xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratdi, shuningdek, savdo-iqtisodiy, madaniy-

gumanitar sohalarida hamkorlikni faollashtirish bo‘yicha qator muhim takliflarni ilgari surdi.

Xalqaro ekspertlar ta‘kidlashicha, O‘zbekiston tomonidan ilgari surilayotgan tashabbuslar pragmatik va hozirgi voqelikda dolzarb bo‘lib, zamonaviy chaqiriqlarni oldindan ko‘rishga qaratilgan.

Davomi 2-betda

Nuqtayi nazar

OLTI MILLIARDDAN ZIYOD
AHOLI YASHAYDIGAN
MAMLAKATLAR A‘ZO BO‘LGAN
MOLIYAVIY TASHKILOT
U bilan hamkorlik bizga
nima beradi?Mintaqada ilk bor Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki
boshqaruvchilar kengashining yillik yig‘ilishi ko‘hna va navqiron
Samarqandda — O‘zbekistonda o‘tkazilgani bejiz emas. Bu o‘zaro
hurmat va ishonchga asoslangan hamkorlikning yuksak namunasidir.

Dunyo miqyosida tobora murakkablashib borayotgan global xavf-xatarlar oqibatini yumshatish, barqaror o‘shish, aholi turmush tarzini yaxshilash sharoitida xalqaro moliya tashkilotlarining roli tobora oshib bormoqda. Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki qisqa muddatda 55 milliard dollarlik loyihalar portfeli bilan nafaqat mintaq, balki jahon miqyosidagi eng nufuzli moliya tashkilotlaridan biriga aylandi.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar va tub o‘zgarishlar davrida asosiy e‘tibor iqtisodiyotni liberallashtirish, xalqimiz turmush darajasi va farovonligini yuksaltirishga qaratilmoqda. Buning natijasida o‘tgan davrda yalpi ichki mahsulotimiz hajmi 2 barobar ko‘payib, ilk bor 100 milliard dollardan oshdi.

Davomi 2-betda



Davomi 4-betda

Buyuk o‘zbek yo‘li

Mahalla —
TARAQQIYOT BESHIGI

(Birinchi maqola)

Joriy yilning 3-5-oktabr kunlari Samarqand shahrida Prezidentimizning “Kambag‘allikdan farovonlik sari” g‘oyasi asosida “Aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning o‘rni” mavzusida xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Qariyb ellikka yaqin mamlakat vakillari ishtirok etgan anjuman keyingi yillarda g‘oyatida farovon jamiyat barpo etish y‘oyasini amalga oshirish va shu maqsadda mahalla institutining faoliyat mexanizmi samaradorligini ta‘minlashga qaratilgan islohotlar bardavomligining yaqqol isboti bo‘ldi.

Ayniqsa, ko‘plab atoqli chet ellik ekspertlar va mamlakatimiz taniqli olimlarining bu borada O‘zbekiston tajribasi shakllangani va uni atroflicha o‘rganishga bag‘ishlangan ma‘ruzalari, taklif va tavsiyalari katta qiziqish uyg‘otganini alohida ta‘kidlash lozim.



O‘ZBEKISTON MDH DOIRASIDAGI HAMKORLIKNI TUZILMAGA A‘ZO BARCHA DAVLATLAR MANFAATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA RIVOJLANTIRISH TARAFDORI

Boshlanishi 1-betda

Antonio ALONSO,
San-Pablo universiteti professori
(Ispaniya):

— Sammit davomida Hamdo‘stlik mamlakatlari o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni rivojlantirish yuzasidan konstruktiv fikr almashildi, bu esa barcha darajadagi sheriklik aloqalarini mustahkamlash muhimligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston yetakchisi xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta‘minlash masalalariga alohida e‘tibor qaratdi. Xususan, MDH mamlakatlari maxsus xizmatlari va vakolatli idoralarning tizimli hamkorligini yo‘lga qo‘yish, kiberxavfsizlikni ta‘minlash sohasida kelishilgan choralar hamda dasturiy hujjatlarni qabul qilish muhimligi ta‘kidlandi.

O‘zbekiston yetakchisi nutqida hamkorlikning iqtisodiy jihatlarini ham asosiy o‘rinni egalladi. Respublikaning yil boshidan buyon MDH davlatlari bilan tovar ayirboshlash hajmi 16 foiz o‘sgani va sanoat kooperatsiyasining muvaffaqiyatli namunalari yanada rivojlantirish uchun salmoqli salohiyat mavjudligidan darakdir.

2025-yil bahorida Toshkent shahrida “Innoprom” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi doirasida MDH Iqtisodiy kengashi yig‘ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o‘tkazish taklifi O‘zbekistonning kooperatsiyani yanada mustahkamlash, kreativ va raqamli yechimlarni ilgari surish istagidan dalolat beradi.

Van SYANSZYU,
Jenmin universiteti huzuridagi Rossiya tadqiqotlari markazi direktori o‘rinbosari
(Xitoy):

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev MDH sammitidagi nutqida Hamdo‘stlik davlatlarining ham xavfsizligi,



ham iqtisodiy hamkorligi uchun muhim bo‘lgan qator dolzarb mavzularga to‘xtalib o‘tdi.



Solih YILMAZ,
Rossiya va MDH mamlakatlarini o‘rganish instituti direktori (Turkiya):

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning uzoqni ko‘zlagan va pragmatik tashqi siyosati, prinsipial siyosiy irodasi tufayli O‘zbekiston MDHga a‘zo barcha davlatlar bilan ko‘p qirrali hamkorlikni jadal rivojlantirishga erishdi.

O‘zbekiston rahbari MDHning joriy sammitidagi ishtiroki orqali tashkilotga a‘zo davlatlar o‘rtasidagi faol hamkorlik muhimligini tasdiqladi hamda MDH doirasidagi rishalarning dolzarb va ustuvor yo‘nalishlarini ta‘kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev MDH davlatlarining xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta‘minlash bo‘yicha yuzaga kelayotgan vaziyatga alohida e‘tibor qaratib, MDH mamlakatlari maxsus xizmatlari va vakolatli idoralari o‘rtasida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, zamonaviy muammolarni hal qilish, xavfsizlikni ta‘minlash sohasida muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni ko‘rishni takomillashtirish muhimligini qayd etdi.

Shuningdek, O‘zbekiston rahbari MDH doirasidagi hamkorlikning iqtisodiy yo‘nalishi ustuvor vazifa bo‘lib kelgani va shunday bo‘lib qolishini, bu boradagi hamkorlikni kuchaytirish uchun MDH tarmoq kengashlari va qo‘mtalari faoliyatini faollashtirish zarurligini bildirdi. Bu mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish va tovar ayirboshlash hajmining yanada o‘sishi uchun rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi.

MDH davlatlarining yetakchi tahliliy markazlari konferensiyasi Toshkentda tashkil etilgani va shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2025-yilda Toshkent shahrida MDH Iqtisodiy kengashi yig‘ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o‘tkazilishi muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekistonning MDH doirasidagi uzoq muddatli hamkorlikning yangi ustuvor yo‘nalishlari, xususan, internet texnologiyalari va “katta ma‘lumotlar” industriyasini rivojlantirish, raqamli yechimlarni jadal joriy etish, kreativ iqtisodiyot, “yashil” energetika va yadro texnologiyalari, iqlim muammolari va boshqalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha taklifini ham muhim deb bilaman.

Ishonchim komilki, MDH sammiti doirasida O‘zbekiston rahbari ilgari surgan barcha tashabbuslarning amalga oshirilishi Hamdo‘stlik makonidagi mamlakatlar o‘rtasida savdo-iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

MDH davlatlarining yetakchi tahliliy markazlari konferensiyasi Toshkentda tashkil etilgani va shu nuqtayi nazardan O‘zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2025-yilda Toshkent shahrida MDH Iqtisodiy kengashi yig‘ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o‘tkazilishi muhim ahamiyatga ega.



Vladimir DERVENEV,
Rossiya Madaniyat vazirligi eksperti:

— MDH sammitida savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlikni kengaytirish va mustahkamlashga qaratilgan juda muhim qarorlar qabul qilindi. Hozirgi kunda MDH eng yirik davlatlararo tashkilotlardan biri sanaladi. Aslida, u global umumiy keng hududi va deyarli 300 million aholisi bo‘lgan 10 ta mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlari uchun muhim bozordir.

Birgina so‘nggi sakkiz yil ichida MDHda tovar ayirboshlash ikki baravardan ko‘proq o‘tdi va o‘tgan yili 118,7 milliard dollarga yetdi, bu birlashmaning butun tarixidagi yuqori ko‘rsatkichdir.

Bugungi qiyin damlarga qaramay, mamlakatlarimiz va xalqlarimiz o‘rtasidagi munosabatl har tomonlama mustahkamlanib, rivojlanib borayotgani quvonarlidir.

Sun CHJUANCHI,
Xitoy Ijtimoiy fanlar akademiyasining
Rossiya, Sharqiy Yevropa va Markaziy Osiyo instituti direktori:

— O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tig‘iz kun tartibida MDH davlat rahbarlari kengashining Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdagi majlisidagi ishtiroki yana bir muhim voqea bo‘ldi. O‘zbekiston yetakchisi o‘z nutqida ustuvor yo‘nalishlar — xavfsizlik, iqtisodiyot, madaniy-gumanitar yo‘nalishlardagi hamkorlikning qator dolzarb masalalariga alohida to‘xtaldi.

O‘zbekiston rahbari, xususan, MDHdagi mavjud xavfsizlik holatiga e‘tibor qaratib, Hamdo‘stlik davlatlarining barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida tizimli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhimligini ta‘kidladi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev ushbu tuzilma doirasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga yangi sur‘at bag‘ishlash uchun MDHning tarmoq kengashlari va qo‘mtalari faoliyatini faollashtirish zarurligini ham qayd etdi. Shu maqsadda O‘zbekiston kelasi yili Toshkentda bo‘lib o‘tadigan “Innoprom” xalqaro sanoat ko‘rgazmasi doirasida MDH Iqtisodiy kengashi yig‘ilishi va Innovatsion rivojlanish forumini o‘tkazish taklifi bilan chiqdi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Prezidenti o‘z nutqida internet texnologiyalari va “katta

Viktor KIM,
Tojikiston Milliy fanlar akademiyasi
Falsafa, siyosatshunoslik va huquq instituti
ilmiy xodimi:

— MDH davlat rahbarlari kengashining Moskva shahrida bo‘lib o‘tgan navbatdagi majlisi yangi istiqbollarni ochib, Hamdo‘stlikka a‘zo davlatlar taraqqiyotida muhim bosqichning



boshlanishi bo‘lishi mumkin. Sammit kun tartibida kelishilgan va tanish masalalar mavjud bo‘lib, uchrashuv muhiti istiqbolga qaratilgan



ma‘lumotlar” industriyasini rivojlantirish, raqamli yechimlarni jadal joriy etish, kreativ iqtisodiyot, “yashil” energetika va yadro texnologiyalari, iqlim muammolari kabi yangi yo‘nalishlarda uzoq muddatli aloqalarni qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etishini ta‘kidladi.

O‘zbekiston rahbari MDH doirasidagi madaniy-gumanitar hamkorlik haqida gapirar ekan, sog‘liqni saqlash, ta’lim, san’at, kino, turizm va sport sohalarini har tomonlama qamrab oluvchi qo‘shma tadbirlarning yillik dasturini qabul qilishni taklif etdi.

Umuman olganda, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan takliflar O‘zbekiston MDHning faol, konstruktiv va mas‘uliyatli ishtirokchisi ekanidan dalolat beradi. Aynan shu jihatlar mutanosiblik va pragmatizm bilan ajralib turadigan yangi O‘zbekiston tashqi siyosatiga xosdir.

yangi konstruktiv birgalikdagi yechimlarga ta’sir qiladi.

Bir qator ekspertlarning MDHning hozirgi holati va istiqbollari haqidagi tanqidiy fikrlariga qaramay, tuzilma makonida 2023-yilning may oyidan hozirgi kungacha ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlariga e‘tibor qaratish lozim. Bu, birinchi navbatda, so‘nggi yetti yil ichida yagona mintaqaviy sifatida shakllangan va 2024-yilda rivojlanish va o‘shishning yangi bosqichiga kirgan Markaziy Osiyoning beshta davlati timsolida MDH asoslarini sezilarli darajada mustahkamlashdir.

Markaziy Osiyo misoli MDHni mustahkamlash va birgalikda rivojlanish uchun yaxshi turki bo‘lishi mumkin. Markaziy Osiyo mamlakatlari munosabatlari 2017-yildan beri O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilayotgan va mintaqadagi barcha davlat rahbarlari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan yaxshi qo‘shnchilik va ishonch tamoyillariga asoslanadi.

Davlat rahbarlari darajasidagi “C5+1” kabi yangi formatlar samaradorligi o‘zini isbotladi va dunyoning yetakchi hamda mintaqaviy kuchlari tomonidan tan olindi.

Ishonchim komilki, MDH davlat rahbarlari kengashi majlisi barcha tomonlar uchun yangi taraqqiyot bosqichi va yangi istiqbollarning boshlanishi bo‘ladi.

“Dunyo” AA

Nuqtayi nazar



**Farhod ZAYNIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo‘mitasi raisi o‘rinbosari**

Boshlanishi 1-betda

O‘zbekiston 2016-yil noyabrda OIIBga a‘zo bo‘ldi. So‘nggi yillarda mamlakatimiz bankning eng yirik benefitsiarlaridan biriga aylandi. Amalga oshirilgan va joriy loyihalar portfeli 3 milliard dollardan oshib, “yashil” energetika, yo‘l-transport va kommunal infratuzilmani modernizatsiya qilish, ta’lim va sog‘liqni saqlash, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash kabi ustuvor yo‘nalishlarni qamrab olgan.

OLTI MILLIARDDAN ZIYOD AHOI YASHAYDIGAN MAMLAKATLAR A‘ZO BO‘LGAN MOLIVAVIY TASHKILOT U bilan hamkorlik bizga nima beradi?

Bunga qanday erishiladi?

Mamlakatimizda kambag‘allik ko‘p yillar davomida yopiq mavzu bo‘lib keldi. Bu ibora o‘rniga “kam ta‘minlanganlik” degan tushunchadan foydalandik. Inson qadrini ulug‘lash, odamlar farovonligini oshirishga qaratilgan ulkan islohotlar natijasida oxirgi to‘rt yilda mamlakatimizdagi kambag‘allik darajasi 23 foizdan 11 foizga tushdi. Joriy yilda bu ko‘rsatkichni 9 foizga, 2030-yilga qadar esa 2 barobar pasaytirish maqsad qilingan.

Xo‘sh, ushbu natijaga qanday erishish mumkin? Fikrimizcha, tadbirkorlikni faol qo‘llab-quvvatlash, fuqarolar uchun barcha sohada yangi ish o‘rinlari ochish va aholining daromad manbalarini ko‘paytirish, biznes loyihalarini qo‘llab-quvvatlash orqali bunday marraga yetish mumkin.

Ushbu nufuzli tadbirda davlatimiz rahbari bu masalaga ham alohida to‘xtalib o‘tdi. Jumladan, aholining sifatlari ta’lim va tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, uy-joy sharoitini yaxshilash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, eng og‘ir hududlarda infratuzilma tarmoqlarini barpo etishni qamrab olgan “ko‘p o‘lchovli” kambag‘allikni qisqartirish dasturi amalga oshirilayotganini qayd etdi. Ilg‘or xorijiy yondashuvlar asosida eng quyi bo‘g‘in

— mahalla darajasiga tushgan holda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha O‘zbekiston tajribasi yaratilgani ta‘kidlandi. Mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha keng qamrovli ishlar bajarildi. Bunga barcha tuman va shaharlarda ehtiyojmand oilalar, ayollar va yoshlar bilan manzilli ishlash bo‘yicha mutlaqo yangi tizim — “Temir daftar”, “Yoshlar daftar” va “Ayollar daftar” joriy etilganini misol sifatida keltirish o‘rinli.

240 ming o‘rinli bog‘chalar barpo etiladi

Yurtimizdagi yangilanishlar haqida gapirganda, ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar haqida so‘zlamaslikning iloji yo‘q. Sababi mamlakatimizda ta’lim-tarbiya, ilm-fanga e‘tibor mutlaqo o‘zgardi. “O‘zbekiston — 2030” strategiyasida ham ta’lim tizimi islohotlari eng birinchi vazifa etib belgilandi. Shunga muvofiq, bu jabha ham umumiy, ham ixtisoslashtirilgan tarzda rivojlantirilmoqda.

Hududlarda yangi maktablar qurilib, qo‘shimcha 800 mingga o‘quvchi o‘rni ochildi. Oliy o‘quv yurtlari soni esa 200 dan oshdi. Shuningdek, yurtimizda Prezident maktablari, ijod maktablari va ixtisoslashtirilgan maktablar faoliyat yuritmoqda.

Kelgusi 3-4 yilda maktabgacha ta’lim qamrovini kengaytirish maqsadida xususiy

sektor bilan birga 240 ming o‘rinli bog‘chalar barpo etiladi.

Davlatimiz rahbarining ta’limdagi loyihalarni xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorligimizning yangi istiqbolli yo‘nalishi sifatida belgilab olish haqidagi taklifi nafaqat soha vakillari, balki tadbir ishtirokchilari tomonidan yakdillik bilan qo‘llab-quvvatlandi. Shu nuqtayi nazardan aytganda, ushbu tashabbuslar mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratishi shubhasiz. Zotan, muammolar yechimi, savollar javobi faqat va faqat ta’limda. Hamma eshikni ochadigan kalit ham ta’lim-tarbiyadir.

Jozibador loyihalar

O‘zbekistonda energetika, suv, transport, axborot texnologiyalari va boshqa infratuzilmalarni yaxshilash uchun yillik ehtiyoj yalpi ichki mahsulotning 10 foiziga tengligi hisob-kitob qilingan. Bu borada xalqaro moliya tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik o‘rnatib, 2030-yilgacha 30 milliard dollarlik davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bo‘yicha katta dastur qabul qilindi. Xususan, “Toshkent — Samarqand” va “Toshkent — Andijon” yo‘nalishlarida pulli avtomobil yo‘llari, “Toshkent — Samarqand”, “Samarqand — Navoiy — Buxoro” yo‘nalishlarida tezayurar

poyezdlar uchun yangi temir yo‘l qurish loyihalarini amalga oshiriladi.

Kelgusi besh yilda esa elektr, suv va gaz taqsimlash tarmoqlarini boshqarish xususiy operatorlarga o‘tkaziladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonda har yili 100 mingdan ziyod xonadonli uy-joylar qurilmoqda. Masalan, Toshkent, Samarqand, Namangan va Andijon kabi yirik shaharlarda hamda viloyat markazlariga yondosh “Yangi O‘zbekiston” shaharchalarini qurish bo‘yicha katta loyihalar amalga oshirilmoqda.

Bu borada o‘rta shaharlarni rivojlantirish bo‘yicha 200 million dollarlik, qishloq joylardagi infratuzilmani yaxshilash bo‘yicha 130 million dollarlik loyihalar Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan hamkorlikda boshlangani alohida e‘tirof loyiq.

Shuningdek, “yashil” iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, 2030-yilgacha “yashil” energiya manbalarini 40 foizga yetkazish bo‘yicha katta mara belgilab olingan. Bu borada Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki 2030-yilga borib, jami portfelinin 50 foizini iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq loyihalarga yo‘natirishi O‘zbekiston maqsadlariga hamohangligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yirik “yashil” energiya loyihalarida bank nufuzli xorijiy kompaniyalar bilan birga yangi andazalar yaratayotgani ham diqqatga sazovor. Kelgusi yillarda O‘zbekistonda yana 18 gigavattli quyosh va shamol, 3 gigavattli gidroelektr stansiyalari, 5 gigavatt energiya

jamlash sig‘imi hamda 5 milliard dollarlik elektr tarmoqlari ishga tushirilishi barcha xalqaro moliya tashkilotlari uchun jozibador loyiha bo‘ladi.

Nufuzli tadbirda Prezidentimiz Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki boshchiligidagi Markaziy Osiyoda “yashil” energiyani rivojlantirish dasturini amalga oshirishni taklif etdi.

Mintaqada yirik infratuzilma loyihalariga talab kun sayin ortib bormoqda. Hozir amalga oshirish boshlangan “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish ana shunday yirik mintaqaviy infratuzilma loyihasidir.

Bundan tashqari, Markaziy Osiyoda oziq-ovqat xavfsizligi va suv resurslari taqchilligi muammolari, ayniqsa, o‘tkir tus olmoqda. Mamlakatimiz bu borada o‘z strategiyasini ishlab chiqib, kelgusi besh yilda suvdan foydalanish samaradorligini 25 foiz oshirish orqali 15 milliard kub metr suvni tejash bo‘yicha katta loyihalarni boshlagan. Shu bois, davlatimiz rahbarining Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan hamkorlikda suv tejaydigan texnologiyalarni keng joriy qilish bo‘yicha mintaqaviy markaz tashkil etish tashabbusi ayni muddao.

Shuningdek, O‘zbekistonda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar bankining hisssasi yuqori baholandi. Bugun infratuzilma, energetika, transport, suv ta‘minoti va barqaror rivojlanish yo‘nalishida bank bilan 3 milliard dollarlik 15 ta loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgani e‘tirof etildi.

Keyingi yillarda bank bilan hamkorlik misli ko‘rilgan yuksak darajaga ko‘tarildi. Bugun juda muhim global va mintaqaviy muammolarga zamonaviy yondashuvlar asosida yechim topish, yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirish bankka a‘zo mamlakatlarda yashaydigan 6 milliarddan ziyod odamning kundalik hayotiga bevosita ta’sir qiladi.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 10-oktabr, 2025-son

TABIIY RESURSLARNI ASRASH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH – BIZNING BOSH MAQSADIMIZ!



Atrof-muhitni muhofaza qilish, yer, suv, yer osti boyliklari, o‘simlik va hayvonot dunyosidan samarali foydalanish sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash kabi masalalar ekologik xavfsizlikning asosi hisoblanib, bu masalalarni xal qilishda O‘zbekiston Ekologik partiyasi o‘zining Saylovoldi dasturida aniq maqsadlarni o‘z oldiga vazifa qilib qo‘ymoqda.

“Tabiat uchun birlashaylik” shiori ostida partiyamiz mamlakatimizning barqaror rivojlanishini, ekologik xavfsizligini ta’minlashga hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga yo‘naltirilgan davlat siyosatini ro‘yobga chiqarish, ekologik masalalarni hal etish nafaqat davlatning vazifasi, balki jamiyatning hamda har bir fuqaroning burchi bo‘lishiga erishish maqsadida aniq va amaliy takliflarni, hayotiy tashabbuslarni ilgari surmoqda.

SUV RESURSLARINI BOSHQARISH: MAQSAD SARI HAL QILUVCHI G‘OYALAR VA AMALIY QADAMLAR

Jahon bankingi tahlillariga ko‘ra, 2050-yilga borib, O‘zbekistonda suvga bo‘lgan talab 59 kub kilometrdan 62-63 kub kilometr gacha oshadi va mavjud suv resurslari sezilarli darajada kamayadi. Bunday vaziyatda faqat suvdan oqilona foydalanish va tejamlorlik choralarining o‘zi kamil qilib.

Mana shunday murakkab sharoitda eng to‘g‘ri va oqilona yechim — yer va suv resurslaridan foydalanish sohasidagi islohotlarni jadallashtirish, bu borada aniq vazifalarni amalga oshirishdir. O‘zbekiston Ekologik partiyasi o‘zining Saylovoldi dasturida ushbu yo‘nalishda bir qator tashabbus va takliflarni ilgari surmoqda. Mamlakatimizda suv resurslaridan foydalanishdagi bugungi real vaziyat, mavjud muammolardan kelib chiqib, hal etilishi zarur bo‘lgan vazifalarni kun tartibiga olib chiqmoqda.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi Saylovoldi dasturida tabiatning bebaho ne‘mati bo‘lgan suv resurslaridan oqilona foydalanish, aholining toza ichimlik suv ta’minotini yaxshilash hamda bu borada mavjud muammolar yechimi yuzasidan aniq takliflar ilgari surilmoqda.

Suv resurslari, ayniqsa, ichimlik maqsadlarida foydalaniladigan suv zaxiralarning taqchillashib borishi suvga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish yo‘li bilan ichimlik suv resurslaridan oqilona foydalanish mexanizmini yaratishni kechiktirib bo‘lmaydigan vazifa sifatida oldimizga qo‘ymoqda.

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, mamlakatimiz suv resurslarining asosiy manbai bo‘lgan ikkita yirik daryo — Amudaryo va Sirdaryo oqimi hoziridagi 15 foizga qisqarishi mumkin. Shunday bo‘lgan taqdirda butun Markaziy Osiyo bo‘yicha aholi jon boshiga suv bilan ta’minlanish darajasi 25 foizga, qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligi esa 40 foizgacha kamayib ketishi ehtimoldan xoli emas.

Saylovoldi dasturida suv resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan bir qator tashkiliy-huquqiy islohotlar olib borish taklif etilmoqda. Jumladan, yangi suv havzalari ni barpo etish va suvni barqaror boshqarish uchun irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish choralarini taklif etilmoqda.

Ekopartiyaning yomg‘ir suvlaridan samarali foydalanish dasturini ishlab chiqish, 2025-yildan qurilish maydoni 500 kvadrat metrdan ortiq bo‘lgan uy, bino va obyektlarda yomg‘ir suvlarini yig‘ish tartibini joriy etish, yomg‘ir suvidan foydalanishni davlat tomonidan rag‘batlantirish mexanizmlari va davlat-xususiy sheriklik tamoyillarini joriy etish bo‘yicha takliflari o‘ta muhim hisoblanib, xorijiy davlatlar amaliyotida ham yomg‘ir suvlaridan samarali foydalanish yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Turkiyada 2 ming kvadrat metrdan ortiq ko‘p qavatli uylar hamda yangi qurilayotgan binolarda yomg‘ir suvini yig‘ish tartibi belgilangan. Germaniyada Frankfurt aeroportida yig‘ilgan yomg‘ir suvi aeroportning ko‘kalamzorlashtirilgan hududlarining 60 foizini sug‘orish va texnik suv o‘rmini qoplash imkonini beradi. Avstraliyada esa yomg‘ir suvi shaharlarda 9 foiz, shahardan tashqarida 63 foiz suvga bo‘lgan talabni qondiradi.

Ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, yurtimiz bo‘ylab yog‘ingarchilikning o‘rtacha yillik hajmi 186 mm ni tashkil etadi. Hisobotlarga ko‘ra, 1 kvadrat metr tom sathidan o‘rtacha 186 litrga teng yomg‘ir suvini to‘plash mumkin.

Agar biz hozirda ishlab chiqarish, uy-xo‘jaligi, maishiy, avtomobillarni yuvish kabi maqsadlarda

sarflanayotgan suvni yog‘ingarchilik suvi hisobidan qoplasak, mamlakat bo‘yicha sezilarli miqdorda toza ichimlik suvni tejashga erishamiz. Yomg‘ir suvlarini to‘plash odamlarning suvga bo‘lgan munosabatini o‘zgartiribgina qolmay, har bir yurtdoshimizni suvni tejashga, yomg‘ir suvlarini yig‘ib foydalanishga undab, millionlab kubometr behuda yo‘qotilayotgan qimmatbaho resursdan samarali foydalanish madaniyatini oshiradi.

Hududlarda yomg‘ir suvlaridan foydalangan holda kichik yashil maydonlar va bog‘lar barpo etish ishlarini tashkil etish va bunda turar joylar va shaxsiy xo‘jaliklarda yomg‘ir suvlarini yig‘ish hamda foydalanish qurilmalari bilan jihozlab, undan foydalanib kelayotgan jismoniy va yuridik shaxslarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish mamlakatda “yashil maydon”larni sezilarli ko‘paytirishga, ularni barqaror saqlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, qor-yomg‘ir va sel suvlarini yig‘ish imkoniyati mavjud bo‘lgan hududlarda qo‘shimcha sel-suv omborlarini tashkil etish hamda qishloq xo‘jaligi, sanoat va maishiy sohada foydalanilgan oqova va chiqindi suvlarni tozalab, qayta foydalanishga kiritish (re-use) choralarini ko‘rish, o‘z navbatida, suvdan foydalanish samaradorligini oshirib, suv bekonga sarflanishining oldini oladi.

Partiya gidrogeologik tadqiqotlar asosida yer osti suvlaridan samarali foydalangan holda lalmikor dehqonchilikni rivojlantirishni mamlakatda aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda muhim tadbirlardan biri, deb hisoblaydi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi o‘zining Saylovoldi dasturida yangi suv havzalari ni barpo etish va suvni barqaror boshqarish uchun irrigatsiya tizimlarini rivojlantirish taklifini ham ilgari surmoqda.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish maqsadlarida yangi qurilayotgan ko‘p qavatli turar joylarda ichimlik va xo‘jalik maqsadlarida foydalaniladigan suvlarni alohida-alohida quvurlarda yetkazib berilishini tashkil etish aholining ichimlik va sug‘orishga mo‘ljallangan suvdan oqilona foydalanish va suv resurslari hisobini yuritishda muhim hisoblanadi.

Suv ta’minotida bozor mexanizmlarini joriy etishni takomillashtirish va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat’i nazar minimal suv iste’molidan kelib chiqib, suv sarfi miqdorini belgilash, yer osti suvlari sathining pasayishi va sug‘orish texnologiyalarning keng joriy etilishi munosabati

O‘zbekiston Ekologik partiyasi

Saylovoldi dasturida tabiatning bebaho ne‘mati bo‘lgan suv resurslaridan oqilona foydalanish, aholining toza ichimlik suv ta’minotini yaxshilash hamda bu borada mavjud muammolar yechimi yuzasidan aniq takliflar ilgari surilmoqda.

bilan sug‘oriladigan yerlarning gidrogeologik baholash tizimini ilmiy asosda qayta ishlab chiqish ham o‘z navbatida hayot uchun muhim bo‘lgan suv resurslarini muhofaza qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Yuqoridagi tashabbuslarni iqtisodiyotning qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarida suvdan samarali foydalanishga qaratilgan Milliy dasturni ishlab chiqish orqali hayotga tabiiy etish suv resurslaridan tizimli ravishda oqilona foydalanish siyosatini samarali amalga oshirishni ta’minlaydi.

Boshqa siyosiy partiyalarning suv resurslaridan oqilona foydalanish borasidagi dasturiy vazifalariga, masalan O‘zLiDeP Saylovoldi dasturiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, suv resurslaridan oqilona foydalanish borasida “Suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan fermer va dehqonlar xarajatining 50 foizini qoplab berish



tartibini joriy etish tartibini o‘rnatamiz”, degan vazifa ilgari surilgan.

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Ekologik partiyasi aynan shu masala qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha xarajatlarining bir qismini qoplash va berilgan subsidiyani qaytarish tartibida o‘z yechimini

shamol eroziyasi cho‘llanish jarayonlarini yanada tezlashtirmoqda.

Mutaxassislarning fikricha, respublikamiz hududining 70 foizi yoki 31,4 million gektar tabiiy sho‘rlanishga, qum ko‘chkilari, changli bo‘ronlar va garmsellar tarqalishi ta’siriga uchragan qurg‘oqchil va yarim qurg‘oqchil maydonlardan iborat. Qariyb 10 million gektar



topgani hamda 2022-yildan boshlab qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining suvni tejaydigan sug‘orish texnologiyasini joriy etish

ayaylovlar tubdan yaxshilanishga muhtoj.

Mamlakatimizda tuproq sifatining muhim ko‘rsatkichi bo‘lgan tuproq unumdorligini oshirishga yo‘naltirilgan choralar ko‘rilishiga qaramasdan tuproq unumdorligi yildan yilga pasayib bormoqda. Jumladan, respublikada o‘rtacha tuproq unumdorligi 1991-yilda 58 ballni tashkil etgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2001-yilda 55 ballni, 2021-yilda esa 53,7 ballni tashkil etgan. Shuningdek, hozirda sug‘oriladigan yerlarning qariyb 53,2 foizi turli darajada sho‘rlangan, yaylovlarining esa 10,8 foizi turli darajada degradatsiyaga uchragani bu borada faoliyatini yanada takomillashtirish zarurligini taqozo etmoqda.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi mamlakatdagi qishloq xo‘jaligida sug‘oriladigan maydonlardan yanada samarali foydalanish, foydalanishdan chiqqan yerlarni qayta foydalanishga kiritish yer resurslaridan samarali foydalanishda muhim ahamiyatga ega ekanini ta’kidlaydi. Bunda, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish uchun yerlarni ekishga tayyorlashda resurs va energiyatejamlor, ekologiyaga bezarar bo‘lgan “No-TILL” (yerga minimal ishlov berish) kabi innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish taklifini ilgari suradi.

ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH BUGUNGI KUNNING ENG DOLZARB MUAMMOLARIDAN BIRI

O‘zbekiston Ekologik partiyasi o‘zining Saylovoldi dasturida atmosfera havosini muhofaza qilish, ozon qatlaminig yemirilishi, issiqxona gazlari normadan ortiq chiqarilishining oldini olish va bu borada tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni aniq belgilash maqsadida zamonaviy xalqaro standartlarga javob beruvchi yangi tahrirdagi “Atmosfera

havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi qonunni ishlab chiqish tashabbusini ilgari suradi. Bunda, atmosfera havosining ifloslanishiga sabab bo‘luvchi imtiyozlarni bekor qilishning huquqiy asoslarini ham belgilab o‘tish nazarda tutiladi.

Insoniyat hayoti uchun eng muhim omil bo‘lgan atmosfera havosini muhofaza qilish, uning sifat ko‘rsatkichlarini ekologik normativlarga mosligini ta’minlash ham bugungi kunning global muammolaridan biridir. Atmosfera havosining ifloslanishi inson, o‘simlik, hayvonot, umuman, jamiki tirik mavjudotlarga zararli ta’sir ko‘rsatadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma’lumotiga ko‘ra, dunyoda o‘ntadan to‘qqiz kishi ifloslangan havodan nafas olapti. Yer yuzining 91 foiz aholisi havosi ifloslangan hududlarda yashamoqda. Har yili 8 million kishi havoning haddan tashqari ifloslanishi natijasida vafot etmoqda. Ayniqsa, Osiyo va Afrika qit’asi mamlakatlari bu ko‘rsatkich bo‘yicha yuqori o‘rinlarda turadi.

So‘nggi yillarda atmosfera havosi ifloslanishida antropogen ta’sirning roli keskin ortib bormoqda. Ishlab chiqarish korxonalari, avtomobillar sonining ko‘payishi atmosfera havosiga tashlanayotgan tashlanmalar miqdorining ortishiga sabab bo‘lmoqda. Ekolog olimlarning xulosalariga ko‘ra, atmosfera havosining ifloslanishiga sabab bo‘luvchi omillarni bartaraf etish, avvalambor, “yashil bog” va “yashil belbog”lar yaratish va ekologik toza transport turlaridan foydalanishni rag‘batlantirish, jamoat transporti jozibadorligini oshirishni talab etadi. Qolaversa, yoqilg‘i sifatiga e’tibor qaratish, an’anaviy uglevodor yoqilg‘ilardan muqobil yoqilg‘i turlariga o‘tish, “yashil” energetikani keng joriy etish tadbirlarini amalga oshirish zarur.

Bularning hammasi sanitariya-gigiyena va estetik jihatdan katta ahamiyatga ega bo‘lib, shaharning qurilish-arxitektura kompleksiga qo‘shilib, atmosfera havosini muhofaza qilishda

erishish, oqova suvlarni tozalash inshootlarini modernizatsiya qilish va yangilarini qurish, lokal oqova suv tozalash inshootlari bo‘lmagan korxonalar faoliyatini ekologik talablarga javob beradigan texnologiyalar joriy etilmaguncha to‘xtatish tartibining joriy etilishi atrof-muhit ifloslanishi bilan bog‘liq muammolarning oldini olish va bartaraf etishga xizmat qiladi.

BIOLOGIK RESURSLAR MUHOFAZASIDA KREATIV YONDASHUVLAR ZARUR

O‘zbekiston Ekologik partiyasi tomonidan mamlakatimizning o‘ziga xos noyob biologik xilma-xilligi ishonchli saqlanishini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Qizil kitobiga kiritilgan o‘simliklardan foydalanishga va yovvoyi hayvonlarni ov qilishga muddatsiz moratoriy e’lon qilish yuzasidan ilgari surilayotgan muhim takliflarini e’tirof etish mumkin.

O‘zbekiston 1995-yil BM Tning Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi (1992-yil) konvensiyasiga qo‘shilgan davlat sifatida o‘ziga bir qator, shu jumladan, biologik xilma-xillik ishonchli saqlanishini ta’minlash maqsadida mavjud muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarni kengaytirish va yangilarini tashkil etish majburiyatini olgan.

Mamlakatimiz hududida 4500 ga yaqin oliy yovvoyi o‘simlik va 2000 dan ziyod zamburug‘ turlari, faunasida umurtqali hayvonlarning 714 turi, umurtqasiz hayvonlarning esa 15 mingdan ortiq turlari mavjud bo‘lib, O‘zbekiston Qizil kitobiga noyob va yo‘qolib ketish afasida 203 turdagi yovvoyi hayvonlar hamda 313 turdagi yovvoyi o‘simliklar kiritilgan. Ta’kidlash joiz, so‘nggi yillarda o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlaridan maxsus foydalanish uchun ularni tabiatdan olish uchun kvota miqdori talab va ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ko‘payib bormoqda. Zero, ushbu holat ayrim noyob o‘simlik va hayvonot dunyosi obyektlari uchun ular genofondining saqlab qolinishida xavflarni keltirib chiqarmoqda.

Qizil kitobga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni muhofaza qilish masalalari, shu jumladan, noyob hayvon turlarini tabiatdan ajratib olish, shuningdek, ovlashga kvotalar berilishida kamchiliklar mavjud. Xususan, Qizil kitobga kiritilgan qo‘ng‘ir ayiq, Markaziy Osiyo cho‘l toshbaqasi, jayron kabi hayvonlar tartibsiz ravishda tabiatdan olinmoqda.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining Saylovoldi dasturida “Qizil kitobga kiritilgan yovvoyi hayvonlarni ovlash uchun ruxsatnoma berishga besh yil muddatga moratoriy e’lon qilish” g‘oyasi ilgari surilmoqda. O‘zbekiston Ekologik partiyasi Qizil kitobga kiritilgan o‘simliklardan foydalanishga va yovvoyi hayvonlarni ov qilish muddatli, ya’ni besh yilga muddatli moratoriy e’lon qilish samara bermaydi deb hisoblaydi hamda uni muddatsiz qilib belgilash lozimligini qat’iy ta’kidlaydi.

Partiyamiz, bugungi kunda yoshi katta daraxt va butalarni boshqa joysga ko‘chirib o‘tkazish oqibatida ularning shikastlanirillishi va qurib qolishi holatlarining oshib borayotganini hisobga olib, 10 yoshdan katta daraxtlarni ko‘chirib o‘tkazishni taqiqlash, shuningdek, o‘rab olingan qurilish maydonlaridagi daraxtlar turli usullarda qasddan quritilayotganligini, qurilish obyektlarida mavjud ko‘karib turgan ko‘p yillik daraxtlarni kesib tashlash holatlarining oldini olish maqsadida qurilish maqsadlarida daraxtlarni noqonuniy kesgan tadbirkorlarning yerga bo‘lgan huquqini bekor qilish tartibini joriy qilish hamda daraxtzorlar mavjud bo‘lgan yer maydonlarini qurilish maqsadlarida realizatsiya qilinishini nonun bilan taqiqlash tashabbusini ilgari suradi.

Bu, o‘z navbatida, aholi punktlarining shundog ham tabiiy kamayib borayotgan “yashil maydon”larini saqlab qolish va ko‘paytirishga, aholining qulay atrof-muhitga ega bo‘lishga doir konstitutsiyaviy huquqlarini ta’minlashga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Ekologik partiyasi o‘zining Saylovoldi dasturi bilan tabiiy resurslarni asrash va ulardan oqilona foydalanishni o‘zining bosh maqsadlaridan biri, deb hisoblaydi hamda ona tabiatga befarq bo‘lmagan barcha fuqarolarimizni ushbu ezgu maqsad atrofida birlashishga chaqiradi!

Navro‘zbek YUSUPOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
Noiba INOYATOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod



O‘ZBEKISTON EKOLOGIK PARTIYASI VA UNING NOMZODLARIGA OVOZ BERING!



Buyuk oʻzbek yoʻli

Mahalla

TARAQQIYOT BESHIGI

(Birinci maqola)

Qiyom NAZAROV,
falsafa fanlari doktori,
professor

Boshlanishi 1-betda

“Kambagʻallikdan farovonlik sari” gʻoyasi

Gʻoyalarning dunyoga kelishi va tadjiriga doir tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, baxtli hayot kechirish va farovon jamiyat barpo etish orzusi insoniyat tarixining eng qadimgi davrlaridan boshlangan. Alloma bobomiz Beruniyning bundan ming yil ilgari yaratilgan “Hindiston” asarida qadimgi yunonlar va hindlarning tafakkur tarzi qariyb bir xil boʻlgani haqida yozilgan. Bu bilan buyuk alloma Sharq va Gʻarb tafakkurining egizakligi, birida paydo boʻlgan gʻoyalarning ikkinchisidan ayro emasligini, yaʼni gʻoyalar sotsionikasining umuminsoniy xarakteriga egaligini genial tarzda isbotlagan.

Qadimgi Xitoy xalqining dono faylasufi Konfutsiyning “Farovonlik — maqsad, islohotlar — unga erishish yoʻli, barqarorlik esa uning kafolatidir”, degan strategemasi bor. Shu elning yana bir donishmandi Lao Szining “Xalqni islohotchiga, har bir xonadonni tadbirkorga aylantirish va ana shular farovonlikka erishishning asosiy imkoniyatidir”, degan hikmati ham bor. Ayni shunday hikmatlar Xitoy elini qadimgi zamonlardan boshlab barqarorlikni mahkam ushlab, farovonlik sari intiladigan islohotchi xalqqa aylantirgan. Natija esa maʼlum. Mazkur elda yuz yillarga choʻzilgan islohot davrlari boʻlgan. Qanchadan qancha yillar oʻtsa ham xalqning koʻplab avlodlari shu yoʻldan ogʻishmay boravergan. Bu Xitoyi ulkan davlatga, barqaror mamlakatga va bugungidek farovon hayotga yetaklagan.

Bunday purnaʼno hikmatlar Gʻarb falsafasi asoschilari Fales va Solon, Suqrot va Afilotunda ham uchraydi. Qadimgi Yunonistonda yaratilgan evdemonizm va gedonizm kabi taʼlimotlar, garchand baʼzi noqisliklardan xoli boʻlmasa-da, aslida, baxtli yashash va farovonlikka intilishning ilmiy-falsafiy ifodasi boʻlganini mutaxassislar yaxshi biladi. Aynan shunday xalqona gʻoyalar ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishi ularning mualliflari yashagan zamonlarda el-yurtga katta foyda keltirgan, ushbu allomalarning zamondoshlarini yuksak maqsadlar sari boshlagan.

Alloma bobomiz Beruniyning yuqorida qayd qilingan asaridagi ishora shunday voqeiklarga nisbatan yozilgan. Bundan ikki yarim ming yil ilgari insoniyat tarixida “Afina ittifoqi” deya

nom qoldirgan 158 ta shahar davlatning bir necha yuz yillik hamkorlikdagi hayotga erishishiga yordam bergan bu gʻoyalar taʼsiri haligacha sezilib turadi va baʼzi mamlakatlar hayotining bugungi amaliyotida zamonaviylashgan holda qoʻllaniladi.

Yurtimiz oʻtmishi va tadjirida ham farovon yashash orzusi barcha zamonlarda biror tarzda namoyon boʻlib turgan. Bobolarimizning eng qadimgi osori atiqalaridan biri “Avesto”da bu haqdagi nidolar va umidlarni jamlangan misralar borligi, qadimgi turkiy toshbitiklarda ham ushbu anʼananing oʻziga xos izlari mavjudligi aslo tasodif emas. Uzoqqa bormaylik, buyuk sarkarda bobomiz Amir Temurning mingta tadbirisiz va noshud kishidan koʻra, bitta tadbirkor insonning afzalligi haqidagi fikri bejiz yozilmagan.

Prezidentimizning “Kambagʻallikdan farovonlik sari” gʻoyasi aynan ana shunday natijador umuminsoniy anʼanalarga tayanadi va xalqimizga xos koʻplab ezuq maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qilmoqda. “Har bir oila — tadbirkor”, “Xalq boy boʻlsa, davlat ham boy boʻladi” kabi tamoyillar ham ushbu gʻoyaning tarkibiy qismi sifatida muhim ahamiyat kasb etayotganini har birimiz koʻrib turibmiz.

Mazkur gʻoya va ushbu tamoyillar soʻnggi toʻrt yilda Prezidentimiz tomonidan eng koʻp taʼkidlangan va alohida ahamiyat berilgan mavzu va masalalar sirasiga kiradi. Yillar davomida “yopiq mavzu” boʻlib kelgan, “kam taʼminlangan”, “ehtiyojmand” kabi jumalar bilan oʻziga xos tarzda ifodalangan kambagʻallik darajasi 2020-yilda ilk marotaba eʼtirof etilgan barchamizning esimizda qolgan va jahon eʼtiborini tortgan muhim voqealardan biri boʻlgan edi.

Davlatimiz rahbarining mamlakatda kambagʻallar qatlami borligini ochiq-oydin gapirishi, avvalo, tarixiy jasorat edi. Chunki Prezident bu bilan bir vaqtning oʻzida muammoni bartaraf etish boʻyicha katta masʼuliyatni zimmasiga oldi. Maʼlumotlarga koʻra, oʻshanda 7,5 million yoki 23 foiz aholining daromadi kambagʻallik chegarasiga yetmasdi.

Prezidentimiz raisligida 2020-yil 27-fevral kuni tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambagʻallikni qisqartirishga qaratilgan chora-tadbirlar boʻyicha oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida bu masala dastlab kun tartibiga nihoyatda jiddiy qoʻyildi. Masalani hal qilish imkoniyatini kechiktirmaslik zarurligini inobatga olgan holda davlatimiz rahbari tomonidan mutasaddilarga tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish yuzasidan kechiktirib boʻlmaz topshiriqlar berildi. Kambagʻallik chegarasi hech qancha hisoblab chiqilmagan davlatda birinchi marta aholining isteʼmoldagi xususiyatlari borasida soʻrovnomalarni, tadqiqotlar oʻtkazildi. Mamlakat tarixida ilk marotaba kambagʻallik chegarasi — minimal isteʼmol xarajatlari miqdori belgilandi, uni

muttasil koʻtarib borish chora-tadbirlari dasturi ishlab chiqildi va u amalga oshirila boshlandi.

Gʻoya umummilliy harakatga aylanmoqda

Har qancha genial boʻlmasin, amaliyotga aylanmaydigan gʻoyalarning foydasi yoʻqligi allaqachon isbotlangan umuminsoniy haqiqatlardan biridir. Gʻoyalar dialektikasi va sotsionikasi ana shunday va shu taxlit tamoyillarga asoslanadi. Buning maʼnosi shuki, biror kishining ong taʼkidida muayyan gʻoya tugʻilgani, u qandaydir tarzda namoyon boʻlishi va amaliyotga joriy etilishi lozim. Ezgulikka xizmat qiladigan gʻoyalar bilan turli buzgʻunchiliklarga sabab boʻladigan, salbiy ehtirolarga erk beradigan gʻoyalar bir-biridan maʼno-mazmun va maqsad jihatidan farq qilishi masalaning alohida jihati, albatta. Ammo dunyoga kelgan gʻoyaning muayyan tarzda namoyon boʻlishi va amaliyotga joriy etilishi natijalari uning hayotdagi oʻmini belgilashi qoidasi saqlanib qolaveradi.

Bu jihatdan “Kambagʻallikdan farovonlik sari” gʻoyasining ezgulikka xizmat qilayotgani kunda ravshan va bu mamlakatimiz hayotining



keyingi yillardagi tadjirida yaqqol namoyon boʻlmoqda. Shu gʻoya tufayli yurtimizda mazkur masalaga yondashuv tubdan oʻzgardi, yangi tizim yaratildi va u doimiy takomillashib bormoqda.

Natijalar uzoq kuttirmadi va real raqamlarda yaqqol namoyon boʻla boshladi. Tarixan qisqa — atigi toʻrt yil ichida tizimli chora-tadbirlar samarasini berib, 3,5 milliondan ziyod vatandoshimizning turmush sharoiti yaxshilandi. Kambagʻallik darajasi 17 foizdan 11 foizga tushdi. 2020-yildan buyon 3 milliondan 5 million soʻmgacha oylik oladigan ishchilar ikki barobar, 5 milliondan 7 million soʻmgacha oluvchilar soni uch barobar oshdi. Kambagʻallik darajasi yilliga oʻrtacha 3 foiz kamayib borayotgani esa ushbu jarayonning bardavomligidan dalolat beradi.

Kambagʻallikni kamaytirishning samarali yechimlaridan biri tadbirkorga sharoit yaratib, ular bilan manfaatli hamkorlik qilishdir. Bu orqali ham kambagʻallar sonini kamaytirish, ham bandlikni taʼminlash va malakali mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Shu maqsadda “20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis” dasturi hayotga tatbiq etildi va bu natijalarini bermoqda. Dastur doirasida shu kungacha 6745 ta tadbirkorlik subyekti bilan 455 ming aholi bandligini taʼminlash boʻyicha hamkorlik shartnomalari imzolandi. Mahallada kambagʻallikni qisqartirish, tadbirkorlik loyihalariga kam foizli 35 trillion soʻm kredit, 7 trillion soʻm subsidiya berildi. Qolaversa, 260 ming gektar yer 800 ming aholiga dehqonchilik qilib, daromad topishi uchun tarqatildi. Natijada koʻplab fuqarolarimiz tayinli ish joyiga, yaxshi daromad manbaiga ega boʻldi.

Davlatimiz rahbari raisligida joriy yil 11-sentabr kuni oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida ushbu yoʻnalishda mutasaddilar oldiga aniq vazifalar qoʻyildi. Bu borada har bir mahalla toʻliq xatlovdan oʻtkazilib, “kambagʻal oilalar portreti” ishlab chiqilmoqda. Kambagʻallikni qisqartirish yangicha yondashuv asosida olib borilmoqda. Respublika boʻyicha 1000 ta eng ogʻir mahallaga respublika darajasidagi vazirlik hamda idoralardan 250 rahbar xodim birlashtirildi. Shuningdek, viloyatdan 2 ming, tumanlardan 12 ming rahbar xodim eng ogʻir ahvoldagi 5 tadan oila bilan ishlaydi. Yerni ijaraga berish borasidagi tashabbuslar davom etadi. Bu jarayonda 50 ming gektar yer 100 mingta kambagʻal oilaga boʻlib beriladi. Shu orqali kambagʻal oilalarning 200 ming aʼzosi bandligi taʼminlanadi.

Prezidentning joriy yil 23-sentabrdagi “Kambagʻallikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish toʻgʻrisida”gi farmoniga koʻra, “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturi kambagʻal oilalar uchun yettita imkoniyat va masʼuliyat tamoyili asosida amalga oshiriladi.



Kambagʻal oilalar reyestri shakllantirildi. Kambagʻallikni qisqartirish davlat maqsadli jamgʻarmasi tashkil etiladi.

Kambagʻal oilalarga noutbuk sotib olish uchun 5 yil muddatga 2 yil imtiyozli davr bilan garovsiz va foizsiz qarz ajratiladi. Tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun qiymati 30 million soʻmgacha boʻlgan kichik ishlab chiqarish uskunalar, koʻchma doʻkonlar (food truck), motoroller, skuter va shu kabi boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun 5 yil muddatga boʻlib-boʻlib toʻlash sharti bilan garovsiz va foizsiz qarz beriladi.

Umuman olganda, Prezidentimiz qayd etganidek, “Bundan buyon kambagʻallikni qisqartirish umummilliy harakatga aylanadi. Hukumatdan tortib tuman tashkilotigacha barcha boʻgʻindagi rahbarlarning kundalik ishi oilalarni kambagʻallikdan olib chiqish boʻlishi kerak. Bu borada nazorat ham, soʻrov ham qattiq boʻladi”.

Xullas, bu borada intilish, izlanish, bilmaganini oʻrganish, tajriba almashish va shu asosda samarali faoliyatni amalga oshirish vaqti keldi. Joriy yilning 3-5-oktabr kunlari boʻlib oʻtgan xalqaro konferensiya ana shu maqsadlarni koʻzlagani shubhasiz.

Xoʻsh, nima uchun bu borada mahallaga katta eʼtibor berilyapti?

Noyob fuqarolik instituti

Bugungi kunda respublikamizda 9452 ta mahalla bor va ular mahalliy darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy va maʼnaviy-maʼrifiy rivojlanishning muhim boʻgʻini hisoblanadi. Bu



jihatdan mahallalar xalqimiz hayotining muhim tarkibiy qismi, ular faqat maʼmuriy vazifalarni bajaribgina qolmay, balki davlat organlari va fuqarolar oʻrtasidagi oʻziga xos muqolot maydoniga aylangan.

Biz bugun mahalla deganda dunyoda kamdan kam uchraydigan, insonni jamiyat bilan uygʻun yashashga oʻrgatib, bagʻrikenglik ruhida tarbiyalaydigan, xalq bilan davlat oʻrtasidagi ishonchli koʻpriq vazifasini bajaradigan noyob tuzilmani tushunamiz. Ota-bobalarimiz umrguzaronlik qilgan shu muqaddas zaminda yashayotgan, uning suv-nonini totayotgan kishi borki, oʻz hayotini, quvonchu tashvishlarini mahalladan ayri holda tasavvur etishi qiyin, albatta.

Ayni paytda mahalla har bir inson hayotining maʼnosi va umri mazmuniga katta taʼsir koʻrsatuvchi ona yurt, ota makonga nisbatan sharoqna yondashuvning betakror namunasi, asrlar qoʻridan bezavol oʻtib kelayotgan maʼnaviy-maʼrifiy makon hamdir. Nafaqat zamonaviy muammolarga samarali yechim topish, balki xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosini oʻzida jamlagan noyob tuzilma sifatida mahalla bugungi kunda aholi hayotini yaxshilash va jamiyatni farovonlashtirishda oddiy ishtirokchi emas, balki muhim qarorlar qabul qiladigan va ularni amalga oshirishga qodir markaz sifatida ham namoyon boʻlmoqda.

Shu bilan birga, bugun mahallaning ijtimoiy ahamiyati, davlat va jamiyat rivojidagi roli, aholining kundalik tashvishlari, masala va muammolarini hal qilishdagi ahamiyati tobora ortib bormoqda. Prezidentimiz mahallada tinchlik hukm sursa, yurtimizda ham tinchlik boʻladi, mahalla obod etilsa, butun mamlakatimiz obodonlashadi, deya alohida taʼkidlagan aslo bejiz emas.

Bugungi kunga kelib, yurtimizda mahalla institutining jamiyatdagi mavqei oshirish, maqomini mustahkamlash va vakolatlarini kengaytirishga doir izchil islohotlar kechmoqda. Ular mahallaning aholi muammolarini hal etishda birinchi boʻgʻin sifatida ishlashini taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi tashkil etilib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi, soliq inspektori va ijtimoiy xodimdan iborat “mahalla yetiligi” faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Ulariga zarur vakolat va imkoniyatlar yaratib berilishi natijasida aholining turmush darajasini oshirish borasidagi ishlar yangi bosqichga olib chiqildi.

Boshlangan hayotbaxsh dasturlarning amaldagi ijrosi oʻlaroq, bugun mahalla aholini islohotlarga safarbar etadigan, jamiyatning barcha qatlamlarini izchil harakatlarga keltiradigan faol, katta ijtimoiy kuch, taʼsirchan tuzilmaga, odamlar kelib fikrini, taklifini, dardini aytadigan, muammosiga yechim topadigan maskanga aylandi.

Maʼlumotlarga koʻra, yurtimizda 2023-yil yakuniga koʻra, ishsizlik darajasi 6,8 foizni tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga

nisbatan 2,1 foiz kamaygan. 2024-yilning 1-yanvar holatiga mehnat resurslari soni 19 million 724 ming 900 kishini tashkil etib, 2023-yilning shu davriga nisbatan 207 ming 400 kishiga (1,1 foiz) oshgan. Oʻz navbatida, bu raqamlar masalaning butun mamlakat miqyosidagi koʻlamidan dalolat beradi va, ayniqsa, mahallalarning ushbu yoʻnalishdagi faoliyatini tizimli yoʻlga qoʻyishni taqozo etadi.

Shu sababli bugungi kunga kelib, yangi Oʻzbekistonni barpo etish jarayonida mahallalarni kambagʻallikdan va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish yoʻlidagi islohotlar nihoyatda katta ahamiyatga ega boʻlmoqda. Mazkur sohadagi islohotlarning samarasini taʼminlaydigan omillar shakllanib, ularning taʼsirchanligi muttasil oʻsib bormoqda.

Ushbu yoʻnalishdagi faoliyatda hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni joyida hal etish maqsadida mahallalar vakolatlarini kengaytirish, moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, fuqarolarning oʻz mahallasi hayotidagi ishtirokini hamda davlat organlari va mahallalar oʻrtasida toʻgʻridan toʻgʻri aloqani taʼminlash maqsadlari ustuvordir. Ayni paytda mahallalarda aholi bilan ishlashga qaratilgan jarayonlarni raqamlashtirish, davlat va ijtimoiy xizmatlarni bevosita mahallada koʻrsatish, mahalladan turib, barcha davlat idoralarga murojaat qilish tizimini yaratishga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Mahallalarning “oʻsish nuqtalari” va ularda yashovchi aholining tadbirkorlik faoliyatidagi ixtisoslashuvidan kelib chiqib, davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, mahallalar uchun yuqori malakali mutaxassislarni maqsadli tayyorlash masalalari oʻz dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Buning uchun barcha mahalla raislari va hokim yordamchilarida boshqaruv asoslari, bandlikni taʼminlash, bank-moliya, tomorqa, yer, chorvachilik va parrandachilik boʻyicha koʻnikmalarni shakllantirishda alohida eʼtibor qaratilayotgani aslo bejiz emas.

Xullas, bugun mahalla ijtimoiy hayotimizning barcha jabhalarida faol ishtirok etyapti. Tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini taʼminlash, kambagʻallikni qisqartirish, ijtimoiy yordam koʻrsatish borasidagi amaliy saʼy-harakatlar mahallaning ishtirokisiz oʻtmayapti. Pirovard maqsad aniq: aholiga munosib turmush sharoiti va farovon hayot yaratish, jamiyatimiz aʼzolarining bu boradagi imkoniyatlarini yanada oshirish, xalqni faol islohotchiga aylantirish.

Bunday yuksak marralarga erishishda Oʻzbekiston xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlar bilan oʻzaro tajriba almashish, birgalikda turli dastur va loyihalarni amalga oshirish orqali yaqin hamkorlikni izchil davom ettirishdan manfaatdor. Yuqorida qayd etilgan “Aholining turmush darajasini oshirishda mahallaning oʻrni” mavzusidagi xalqaro konferensiya aynan shu maqsadni koʻzlagani bejiz emas.





www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz

2024-yil 10-oktabr, 205-son

Munosabat

Ilhomjon TO‘XTASINOV,
pedagogika fanlari doktori,
professor

Zamonaviy dunyoda O‘zbekiston yoshlari uchun chet tillarni puxta o‘rganish global muloqot va muvaffaqiyat kalitidir. Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida “Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo‘lib kamolga yetishi bilan bog‘liq. Bizning asosiy vazifamiz — yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat”, deya ta’kidlagan edi.

Globallashuv, madaniyat va qadriyatlar, milliy o‘zlik tushunchalari orasidagi masofalar kundan kunga qisqarib borayotgan pallada yoshlarimizning jahonga integratsiyalashishida til omili muhim va asosiy vazifani bajarmoqda. Chet tillarni bilimgan yoshlar xalqaro biznes, ilm-fan, siyosat, iqtisodiyot yoki axborot va kommunikatsiya tarmog‘ida joy yo‘q ekanini anglatmoqda.

Bandlik

IJTIMOIY KO‘MAKGA MUHTOJDAN
ish beruvchiga aylanayotgan yangi qatlam

Joriy yilning 11-sentabr kuni davlatimiz rahbari raisligida kambag‘allikni qisqartirish ishlarini yangi sifat bosqichiga olib chiqish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida aholining doimiy daromad manbaiga ega bo‘lishini ta’minlash borasida aniq taklif va ko‘rsatmalar berildi. Yurtimizda bu borada qilingan ishlar natijasida 2023-yilning yakuni bo‘yicha kambag‘allikni 11 foizga pasaytirishga erishilgani ta’kidlandi.



Jumladan, Qumqo‘rg‘on tumanida ham kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash borasida qator ijobiy ishlar qilinmoqda. Joriy yil boshidan buyon hududdagi qariyb 500 tashabbuskor fuqaro onlayn o‘qitilib, bilim va ko‘nikmasi oshirildi. O‘quv jarayonidan o‘tgan va biznes rejalarini yoqlagan 437 tashabbuskoring 42,1 milliard so‘mlik loyihalarini amalga oshirish uchun kredit ajratish bo‘yicha sertifikatlar berildi. Shuningdek, sertifikat olgan 338 ta loyiha egasiga 29,2 milliard so‘m kredit ajratildi.

“Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi” doirasida 2024-yilning o‘tgan davrida “Onlayn mahalla” platformasiga kredit olish istagini bildirib, 5920 fuqaro murojaat qilgan. Ular 129 milliard so‘mlik kreditga ehtiyoji borligini bildirdi. Mazkur fuqarolarning 2005 nafariga ijobiy tavsiyanoma berilib, 1785 nafariga 32,5 milliard so‘mlik imtiyozli kredit ajratildi hamda ish bilan bandligi ta’minlandi.

Qumqo‘rg‘on tumanining “O‘zbekiston 5 yilligi” MFYdagi 1025 oilada 3960 kishi istiqomat qiladi. Hudud ahli, asosan, qishloq xo‘jaligi va chorvachilik bilan shug‘ullanadi. Mahalla drayveri issiqxonachilik bo‘lib, aholi

bandligini ta’minlash va sohani rivojlantirish maqsadida ajratilgan imtiyozli kreditlar bugun o‘zini to‘la oqlamoqda.

— Keyingi uch yilda birgina bizning mahallamizning o‘zida kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan rejali loyihalar asosida 4 milliard 600 million so‘m kredit ajratildi. Shuning hisobidan 166 xonadon egasiga kredit, 122 oilaga issiqxona qurib berildi, — deydi “O‘zbekiston 5 yilligi” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi Ismoil Choriyev. — Buning natijasida kambag‘allik sezilarli kamaytirildi. Ijtimoiy daftarlarga kiritilgan fuqarolar bilan manzilli ishlar natijasida kambag‘allikning sezilarli kamayishiga erishilmoqda. Ular to‘ylar qilmoqda, uylar qurib, mashinalar olyapti. Eng muhimi, aholi ongi o‘zgargan — yoshlarda ilm olishga ishtiyoq oshgan.

Shu mahallada yashovchi Davron Ostonagulov ham berilgan imkoniyatdan unumli foydalangan holda kredit olib, issiqxona qurgan edi. Bugun yaxshigina daromad olmoqda. Xonadon bekasi Gulbahor Bo‘riyeva esa gulchilikka mehr qo‘ygan. Shu bois, bu uyda yuzdan ziyod gul navi parvarishlanayotganini ko‘rish mumkin.

Darhaqiqat, ota-bobolarimizning “Til bilgan — el biladi” naqliga binoan yurtimizning ertangi kuni, uning farovonligini ta’minlash uchun yoshlarning bilim va salohiyatini oshirish, keng imkoniyatlar yaratib berish oldimizda turgan asosiy masalalardan biridir.

Imkoniyatlardan foydalanish
— davr talabi

O‘zbekistonda yoshlarning xorijiy tillarda erkin muloqot qila olishi odatiy holga aylangani, albatta, quvonarli. Natijalar uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tillar yuqori saviyada o‘qitilishiga e’tibor qaratilayotgani, yoshlarga sharoit yaratilgani bilan chambarchas bog‘liq. Yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishiga ta’sir etuvchi omillar mavjud.

Birinchidan, O‘zbekistonning dunyo hamjamiyati bilan teng integratsiyaga kirishishi natijasida hayotimizda bo‘y ko‘rsatayotgan yangi texnologiyalar yoshlarni o‘ziga jalb etadi. Bu texnologiyalar ingliz, xitoy va boshqa xorijiy tillar bilan bog‘liqligi sababli ularni tushunish, keng foydalanish natijasida xorijiy tilga nisbatan qiziqish ortib bermoqda.

Ikkinchidan, yoshlar qaysi yo‘nalishni tanlamasin, oliygohga kirishda xorijiy til bo‘yicha B2 darajali til sertifikatiga ega bo‘lsa, xorijiy tildan imtihon baliga 100 foiz imtiyoz qo‘shib berilmoqda. Bu esa ularga qolgan fanlardan yaxshiroq tayyorgarlik ko‘rishga imkoniyat yaratmoqda.

IELTS kabi xalqaro e’tirof etilgan til bilish imtihonlarida 7.0 va undan yuqori ball olgan yoshlarning imtihon puli davlat tomonidan kompensatsiya qilib berilishi yoshlarning xorijiy tillarni o‘rganishi uchun e’tibor va imkoniyatning yaqqol namunasidir. Bundan ko‘zlangan maqsad til bilish bo‘yicha bilimdon yoshlarni kashf etish va dunyo mehnat bozoriga raqobatbardosh, yuksak bilimli kadrlarni tayyorlash hisoblanadi.

Globallashuv va faol xalqaro hamkorlik sharoitida noyob xorijiy tillarni biladigan malakali mutaxassislarga ehtiyoj tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu esa O‘zbekiston yoshlari uchun chet tillarni puxta bilish shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochayotganini, yoshlarimizning yorqin kelajagini barqaror qura olishiga yordam berishini anglatadi.

XORIJIY
TILLARNI BILISH

YOSHLAR UCHUN QANCHALIK MUHIM?



Xorijda ta’lim olish uchun yoshlarga imkoniyat yaratish, mutaxassislar tayyorlash va vatandoshlar bilan muloqot qilish bo‘yicha “El-yurt umidi” jamg‘armasi tashkil etilgani yana bir rag‘bat bo‘ldi. Bu jamg‘arma tanlovda ishtirok etish uchun asosiy shartlardan biri ham chet tildan bilim darajasini belgilovchi amaldagi milliy (CEFR) yoki xalqaro sertifikatga (IELTS, TOEFL, DELF) ega bo‘lish. Ushbu imkoniyatdan foydalanayotgan yuzlab yoshlar har yili xorijiy OTMlarda bakalavr yoki magistraturada o‘qib, yaxshi kasb egalari bo‘lib yurtimizga qaytmoqda. Shu kabi yoshlarning fikricha, chet tilni bilish ularning nafaqat dunyoqarashini kengaytiradi, balki dunyoga chiqishiga yo‘l ochib berayotgan kalit hamdir.

Ilgari xorijiy tillar 5-sinfdan boshlab o‘qitilgan bo‘lsa, yangi davr o‘quvchilari maktab ostonasiga qadam tashlashi bilanog ona tili bilan bir qatorda o‘zga, xorijiy tillar bilan yuzlashmoqda. Xorijiy, asosan, ingliz tilini o‘qitish 1-sinfdan tatbiq etilgan bo‘lib, yosh avlod ta’lim muassasalarini bitirgunga qadar til bilish darajasi B2 bo‘lishi

belgilangan. Xorijning yetakchi nashriyotlari va metodikalari asosida tajribadan o‘tkazilgan va natijador yangi avlod darsliklari, adabiyotlari vositasida ta’lim berilayotgani, til sohiblarining dars jarayonlariga jalb qilinganini e’tirof etish lozim. Bundan tashqari, xorijiy ta’lim tashkilotlari tomonidan yangi loyiha va dasturlar asosida o‘qitish uslublariga transformatsiya qilish zamon talabiga aylanib ulgurdi. Tajribadan ko‘rish mumkinki, o‘rta maktabning 7-8-sinf o‘quvchilari ham bugungi kunda xorijiy tilni o‘rganib, til sertifikatiga ega bo‘lmoqda. Qolaversa, maktablarda birinchi chet tilga qo‘shimcha ravishda nemis, fransuz, koreys, ispan, xitoy va yapon tillarini ikkinchi xorijiy til sifatida o‘qitish boshlandi. Bu esa yoshlarga maktabni bitirishda ikkita xorijiy tilni o‘rganib chiqishi uchun keng imkoniyatdir.

Uchinchidan, O‘zbekiston bugun barcha uchun ochiq davlat sifatida keng o‘plab xorijiy investorlar, chet el korxonalarini kirib kelishiga zamin yaratib, ishlabarmonlik o‘chog‘iga aylannoqda. Xalqaro hamkorlik natijasida katta

investitsiyalar jalb etilmoqda, yoshlar xorijda ta’lim olishiga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, rivojlangan mamlakatlar ilg‘or tajribalari yurtimizga olib kiritilmoqda. Bunday davrda farzandlarimizning til bilishi, xorijliklar bilan tengma-teng muloqot qila olishi, turli tillardan o‘zbek tiliga yoki o‘zbek tilidan xorijiy tillarga tarjima qilishi biz uchun o‘ta muhimdir.

Ta’lim tashkilotlarida, o‘quv kurslarida ham chet tili deganda aksariyat holatda ingliz tili o‘qitilishi kuzatiladi. Ammo bugungi kunda 10 mingdan ortiq maktabda ingliz tili, 901 ta maktabda nemis tili, 581 ta maktabda fransuz tili va 47 ta maktabda boshqa chet tillar o‘qitilmoqda. Shuningdek, 354 ta maktabda ikkinchi chet tili — fransuz, nemis, koreys, yapon, ingliz, xitoy tillari o‘qitilishi boshlangan. Ushbu maktablarning 10-sinfida tahsil olayotgan 16 ming 166 o‘quvchiga 418 o‘qituvchi turli chet tillardan dars bermoqda.

Shuningdek, 23 ta davlat oliy ta’lim muassasasida filologiya va tillarni o‘qitish, tarjima nazariyasi va amaliyoti bakalavriat ta’lim yo‘nalishlarida ingliz, fransuz, nemis, arab, ispan, koreys, xitoy, yapon, italyan, turk, rus, fors, sharq tillari, qiyosiy tilshunoslik, lingvistik tarjimashunoslik, sinxron tarjima bo‘yicha kadrlar tayyorlanmoqda.

Yetuk kadrlarni salohiyatli
ustozlar tarbiyalaydi

Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan, respublika bo‘yicha ta’lim muassasalari, tarmoglar va huddudlarining ehtiyojidan kelib chiqib, kamida 10 ta chet tilni (ingliz, rus, nemis, fransuz, xitoy, koreys, yapon, turk, arab, fors) ommalashtirish vazifasi belgilangan.

Chet tillarni sifati o‘rgatish uchun xorijiy ta’lim muassasalari bilan xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, xorijiy til sohiblarini (native speakers) o‘quv jarayoniga jalb etish, xorijda malaka oshirish va stajirovkalar ulushini oshirish

Islahotlar samarasi

Joriy yilning 8-oktyabr kuni Jizzax viloyatining Baxmal tumanida za‘faron plantatsiyasini kengaytirish, quritish va qayta ishlashni tashkil etish loyihasining ochilish marosimi hamda za‘faron tuganak piyozboshilarini namunaviy ekish tadbiri o‘tkazildi.

“QIZIL OLTIN”NI
QAYTA ISHLASH YANADA KO‘PAYADI

Za‘faron inson salomatligi uchun tengsiz xususiyatga ega o‘simlik. Qadimdan ushbu giyoh ziravorlar sultoni yoki “qizil oltin” deya e’tirof etilib, qiymati yuqori baholalanib kelinadi.

Mamlakatimizda tashkil etilgan za‘faron plantatsiyalari jahon miqosida yaxlit hududda joylashgan plantatsiyalarning eng yirigi hisoblanadi.

Prezidentimizning shu yil 8-9-aprel kunlari Jizzax viloyatiga tashrifi davomida za‘faron plantatsiyalarining umumiy maydonini 2 ming gektarga yetkazish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi. Jumladan, Baxmal, G‘allaorol va Zomin tumanlarida qo‘shimcha 1,6 ming gektarda za‘faron plantatsiyalarini tashkil etish belgilandi.

“BMB Holding” tomonidan Italiyaning “FIN. OPERA SRL” kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyihaning umumiy qiymati 120 million yevroga tengdir. Buning

uchun 70 million yevro miqdorida to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiya, 37 million yevro tashabbuskor mablag‘i hamda 13 million yevro hajmida “O‘zsanoatqurilishbank” krediti jalb qilindi.

O‘tgan davr mobaynida mazkur loyiha doirasida 60,8 million yevro investitsiya o‘zlashtirilib, qariyb 120 ta doimiy va 25 mingga mavsumiy ish o‘rni yaratildi.

Shu bilan birga, loyiha tashabbuskori tomonidan qo‘shimcha ravishda kiritilgan 5 milliard so‘mlik sarmoya hisobiga 2,5 kilometrqa yaqin yo‘lga beton yotqizilib, 25-30 kilometr uzunlikda elektr tarmog‘i tortildi. Natijada hudud aholisi uchun ham ravon yo‘llar va elektr energiyasidan foydalanish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Loyihaning ochilish marosimida ishtirokchilar xolding tizimidagi korxonalar faoliyati, u yerda yaratilgan mehnat sharoitlari bilan yaqindan tanishdi.



kabi vazifalar qo‘yilgan. 2023/2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim maktablariga 500 nafar til egasi jalb etilib, til muhiti yaratilgan bo‘lsa, ushbu tajriba joriy yilda ham davom etmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida yuqoridagi vazifalar maqsadli ko‘rsatkichlar sifatida belgilab berilgan.

Unga ko‘ra, birgina O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida o‘quv yili davomida imzolangan memorandum va shartnomalar soni 103 tadan 157 taga oshdi. Universitetning xorijga yuborilgan professor-o‘qituvchilari soni 192 nafar, talabalar soni esa 200 nafardan oshdi. Xorijlik o‘qituvchilar 23 nafardan 55 nafarga ortgan bo‘lsa, xorijiy talabalar soni 74 nafardan 171 nafarga yetkazildi.

Bugungi kunda Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Finlyandiya, Slovakiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Yaponiya, Misr, Jazoir, Birlashgan Arab Amirliklari, Turkiya, Malayziya, Rossiya, Qozog‘iston kabi qator davlatlarning oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalari o‘rnatilgan. Universitet talabalari mazkur mamlakatlarning oliy ta’lim muassasalarida har yili 6 oylik va bir yillik grantlar asosida ta’lim olib keltirib kelmoqda. Mazkur davlatlar OTMlarining professor-o‘qituvchilari universitetimizda faoliyat yuritmoqda. Bu esa xorijiy tilda darslar yanada samarali tashkil etilishiga sabab bo‘lmoqda.

Shuningdek, O‘ZDTUda ilmiy salohiyatli professor-o‘qituvchilar ulushi 171 nafardan 296 nafarga oshdi, doktorantura qabul 2023-yilda 44 nafardan 2024-yilda 61 nafarga ko‘paydi. C1 va C2 darajadagi xalqaro va milliy sertifikatga ega professor-o‘qituvchilar ulushi 2023-yil sentyabrda 592 nafarni tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib, 690 nafarga yetdi.

Talabalar orasida hali 2-, 3-kursdayoq chet til bo‘yicha S1 darajadagi sertifikatni qo‘lga kiritayotganlar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Ular uchun mahalliy qo‘shma ta’lim dasturlari, ya’ni til + kasb berish yoki ikkita kasb egallashiga imkoniyat yaratish ustida hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda. “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi bilan hamkorlikda chet tilini biladigan yoshlarga bort kuzatuvchisi, styuardessa kasblarini o‘rgatish, “O‘zbekturizm” bilan bilan chet tilni yaxshi biladigan bitiruvchi kurs talabalarini tur-operatorlikka tayyorlashni boshlayapmiz.

Globallashuv va faol xalqaro hamkorlik sharoitida noyob xorijiy tillarni biladigan malakali mutaxassislarga ehtiyoj tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Bu esa O‘zbekiston yoshlari uchun chet tillarni puxta bilish shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar ochayotganini, yoshlarimizning yorqin kelajagini barqaror qura olishiga yordam berishini anglatadi.

Joriy yilning aprel oyida Prezidentimizning korxonamizga tashrifi, bildirgan iliq fikrlari, qo‘llab-quvvatlovi milliy za‘faronchilikni rivojlantirishdagi sa’y-harakatlarimizga katta kuch-g‘ayrat ulashdi, ulkan maqsadlar sari undadi, — deydi “BMB Holding” kuzatuv kengashi raisi B.Mamatqulov.

Xususan, shu yil so‘ngiga qadar za‘faron maydonlarini 700 gektarga, kelgusi yillarda 2 ming gektarga yetkazish va shu orqali eksport hajmini 20 tonnaga oshirish rejalashtirilgan.

Bugungi kunda xoldingga qarashli korxonalar tomonidan yigirmaga yaqin turdagi za‘faronli mahsulot ishlab chiqarilib, “BMB za‘faron” brendi ostida dunyoning ko‘pgina davlatlariga eksport qilinmoqda.

Buning uchun mahsulotlar Italiya, Fransiya, Niderlandiya hamda Janubiy Koreyadagi laboratoriyalarda ikki bosqichli chuqurlashtirilgan tekshiruvlardan o‘tkazildi, ISO 3632-1/2011 xalqaro standarti asosida 1-toifa sifat darajasi sertifikatini oldi.

Za‘faron plantatsiyasida mahsulot ekish, yetishtirish, agrotexnik tadbirlar o‘tkazish, terib olish, qayta ishlash, saqlash va qadoqlash jarayonlari Niderlandiyaning “Control Union Certifications” tashkiloti tomonidan o‘rganildi. Natijada “BMB za‘faron”ga “USDA ORGANIC” sertifikati berildi.

O‘zbek “qizil oltin”ini dunyoning eng yirik bozori — Xitoyga eksport qilish bo‘yicha ham O‘zbekiston va Xitoy idoralararo komissiyasi xulosasiga ko‘ra ruxsatnoma olingan.

Yevropa va AQSH bozorlariga esa Italiya-da tashkil etilgan qo‘shma korxona tomonidan “ORO ROSSO Milano” brendi ostida eksport qilinmoqda.

Za‘faron plantatsiyasida tuganak piyoz-boshilarni namunaviy ekish tadbirida ishtirokchilar za‘faron maydonlarida polshalik mutaxassislar bilan hamkorlikda sinov tariqasida qo‘llanila boshlangan “AgroNanoGel Basic” gidrojel tizimi bilan tanishtirildi.

Ta’kidlanishicha, gidrojel o‘simliklar uchun suv zaxirasi sanaladi. Uning qo‘llanilishi vegetatsiya davrida o‘simliklar uchun optimal suv sharoitini hozirlab, uning sarfini 45 foizgacha tejaydi.

**Farhod NE‘MATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

**Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri**

